

“SULTON” VA “S-8294” G‘O‘ZA NAVLARINI EKISH SXEMASI HAMDA CHILPISH MUDDATLARINING QURUQ MODDA TO‘PLANISHIGA TA’SIRI

Yusupov Hasan Rustamovich

doktarant. Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya: *Maqolada Xorazim viloyatida ekilayotgan yangi istiqbolli “Sulton”, “S-8294” g‘o‘za navlarini ilgari tadan ekilayotgan Xorazm-127 naviga taqqoslagan xolda quruq modda to‘plashiga ekish sxemasi xamda chilpish muddatlarining ta’siri o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm viloyati, nav, variant, ko‘chat qalinligi, ekish sxemasi, chilpish, quruq modda miqdori, gul, poya, barg, paxta, hosil.*

Аннотация: *В статье изучено влияние схемы посева и сроков прополки на накопление сухого вещества, сравнивая новые перспективные сорта хлопчатника «Султон», «S-8294», посаженные в Хорезмской области, с ранее возделываемым сортом Хорезм-127.*

Ключевые слова: *Хорезмская область, сорт, вариант, толщина всходов, схема посадки, чеканка, количество сухого вещества, цветок, стебель, лист, хлопчатник, урожайность.*

Annotation: *This article studies the effect of planting scheme and chipping periods on dry matter accumulation comparing to the new promising cotton varieties “Sultan” and “S-8294” grown in Khorezm region with the previously cultivated in Khorezm-127 variety.*

Key words: *Khorezm region, sort, version, seedling thickness, planting scheme, chipping, amount of dry substance, flower, stem, leaf, cotton, yield.*

Yildan - yilga aholini paxta tolasiga va chigitlar tarkibidagi moyga bo‘lgan ehtiyoj kundan - kunga oshib bormoqda. Keyingi yillarda, ko‘pgina mamlakatlarda paxta tolasiga

bo'lgan talab kuchayapti. Shuning uchun, barcha olimlar va paxtakorlar yangi navlarni yaratish hamda ularni ishlab chiqarishga joriy etish maqsadida katta ishlar olib bormoqdalar. Bir qator olimlar va qishloq xo'jalik mutaxassislarining ma'lumotlarida, g'oz navlarini ma'lum tuproq iqlim sharoitiga to'g'ri tanlash va ulardan foydalanish tashkil etish paxtachilikni intensivlashning eng muhim vositasi ekanligi va sifatli hosil olish jarayonlarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar bo'lishi ko'rsatilgan. Barchamizga ma'lumki, o'simlikning quruq modda to'planishi o'suv davri davomida qo'llanilgan agrotexnik tadbirlarga bevosita bog'liq bo'ladi. Ko'p yillik ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'simlik 1 gr quruq modda hosil qilishi uchun 500-600 g. suv sariflanishi, bunda har bir tup o'simlik o'ziga nisbatan 500-600 g. ko'p suvni bug'lantirishi kuzatiladi [1; <http://arizona>]. G.S.Yakvolxo'jaeva [2; 21-22-b], R.Musaev [3; 22-b] larni ma'lumotlariga ko'ra g'oz o'simligini yuqori darajada quruq massa to'plash davri hosil tugish va pishish davrlariga to'g'ri keladi. O'simlikni amal davrida to'plagan quruq massasi avvalo navning biologik xususiyatlariga, qolaversa tashqi muhit sharoitlariga, suv bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Shunday ekan, bizni izlanishlarimizda ham g'oz navlarini biologik xususiyatlariga, o'g'it me'yorlari, sug'orish tartiblari va ko'chat qalinliklariga bog'liq holda quruq massa to'plashi aniqlandi. Olib borilgan tadqiqotlarimizda g'oz navlarini quruq modda to'planishi ekish sxemasi va chilpish muddatlarini ta'siri o'rganildi. Xorazm viloyati tuproq iqlim sharoitida 2020-2022-yillardagi olgan ma'lumotlarga taxlil qilib borildi. O'tkazilgan tajribada nazorat variantida (2021 yil ma'lumoti) g'ozaning Xorazm-127 navi 60x15-1 sxemada ekilganda 2-3 chin barg davrida 0,84 gr ni tashkil qilgan bo'lsa, Sulton navini 60x12-1 sxemada ekiganda bu ko'rsatkich 0,80-0,82 gr ni, 60x15-1 sxemada ekilganda esa 0,81-0,84 gr ni tashkil etganligi kuzatildi. Tajribadagi S-8294 navini 60x12-1 sxemada ekilganda esa 0,78-0,79 gr ni, ushbu nav 60x15-1 sxemada ekilganda 0,79-0,81 gr ni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir navning biologik xususiyatlariga bog'liq holda eng kam ko'rsatkich S-8294 navida aniqlanib, Xorazm-127 naviga nisbatan 2-3 chin barg davrida 0,06-0,07 gr gacha, Sulton naviiga nisbatan 0,03-0,04 gr gacha kam bo'lganligi ma'lum

bo'ldi. G'ozaning shonalash davrida ham navlarni quruq modda to'plashi aniqlanganda nazorat 1-varinatda Xorazm-127 navi 60x15-1 sxemada ekilganda 6,61 gr bo'lgan bo'lsa, Sulton navida eng yuqori ko'rsatkich 60x15-1 sxemada ekilgan 7-varianda kuzatilib, 6,80 gr ni tashkil qildi. Bu nazaorat 1-variantga 0,19 gr ga yuqori bo'lgant bo'lsa, tajribadagi S-8294 navi eng yuqori ko'rsatkich 60x15-1 sxemada ekilganda 6,35 gr ni tashkil etib, 1-varinatga nisbatan 0,26 gr ga past bo'lganligi kuzatildi. G'oz navlarini gullash fazasida o'simlikning quruq modda to'plashi aniqlanganda ham yuqoridagi qonuniyatga mos ravishda nazorat variantida Xorazm-127 navi 60x15-1 sxemada ekilganda 71,2 gr bo'lgan bo'lsa, Sulton navida bu ko'rsatkich 60x15-1 sxemada ekilgan 7-variantda kuzatildi 71,5 gr ni takil etib nazorat 1-variantga nisbatan 0,3 gr ga yuqori bo'lgan bo'lsa, S-8294 navida eng yuqori ko'rsatkich 60x15-1 sxemada ekilgan 13-varinatda kuzatilib, 69,9 grni tashkil etgan bo'lsada, nazorat 1-variantga nisbatan 1,3 gr ga, Sulton naviga (7-variantga) nisbatan 1,6 gr ga kam bo'lganligi aniqlandi. Tajriba so'ngiga kelib o'simlikni quruq modda to'plashi aniqlanganda g'ozani ekish sxemasi va o'z o'rnida chilpish muddatlarini ham o'ziga xos ta'sir etganligi kuzatildi. Bunda nazorat 1-varianti Xorazm-127 navi 60x15-1 sxemada ekilib, 12-14 hosil shoxida chilpish o'tkazilganda poyada 47,6 gr, bargda 44,2 gr, chanoqda 33,5 gr, paxtada 49,6 gr, jami 174,9 gr quruq modda to'planganligi aniqlandi. Sulton navi 60x12-1 sxemada ekilib, hosil shoxi 10-11 donada chilpish o'tkazilgan 2-varinatda bu ko'rsatkich poyada 37,9 gr, bargda 35,8 gr, chanoqda 39,8 gr, paxtada 42,3 gr, jami 145,8 gr ni tashkil qildi. Ushbu navda eng yuqori ko'rsatkich 60x15-1 sxemada ekilib, 15-16 hosil shoxi bo'lganda chilpish o'tkazilgan 7-variantda kuzatilib, poyada 48,8 gr, bargda 46,7 gr, chanoqda 34,9 gr, paxtada 50,9 gr, jami 181,3 gr ni tashkil etib bu nazaorat 1-variantga nisbatan 6,9 gr ga yuqori bo'lganligini ko'rsatdi. Tajribadagi keyingi S-8294 navida ham eng yuqori ko'rsatkich 60x15-1 sxemada ekilib, 15-16 hosil shohida chilpish o'tkazilgan 13-variantda kuzatilib, poyada 45,9 gr, bargda 39,9 gr, chanoqda 33,5 gr, paxtada 46,5 gr, jami 165,8 gr bo'lgan bo'lsa bunda nazorat 1-variantga nisbatan 9,1 gr ga, Sulton naviga nisbatan 15,5 gr kam quruq modda to'planganligi taxllillarda aniqlandi.

1-javdval

**O‘simlikning amal davrida quruq massa to‘plashi, gr
(2021)**

T/r	Navlar	Ekish sxemasi	Chilpish muddatlari	2-3 chin barg	Shona lash	gullash	Pishish				
							poya	barg	chanoq	paxta	jami
1	Xorazm-127	60x15-1	12-14	0,84	6,61	71,2	47,6	44,2	33,5	49,6	174,9
2	Sulton	60x12-1	10-11	0,80	6,30	66,6	37,9	35,8	29,8	42,3	145,8
3			12-14	0,81	6,20	66,5	42,6	38,9	31,5	45,6	158,6
4			15-16	0,82	6,20	67,4	47,7	41,2	31,5	47,3	167,7
5		60x15-1	10-11	0,81	6,50	70,3	43,1	39,9	32,4	45,6	161,0
6			12-14	0,83	6,59	70,8	46,7	43,2	32,6	48,2	170,7
7			15-16	0,84	6,80	71,5	48,8	46,7	34,9	50,9	181,3
8			S-8294	60x12-1	10-11	0,79	6,15	65,1	36,2	35,2	28,9
9	12-14	0,79			5,98	65,7	40,2	36,7	29,9	42,5	149,3
10	15-16	0,78			6,05	66,5	46,3	38,5	30,6	45,2	160,6
11	60x15-1	10-11		0,80	6,29	69,9	38,6	37,2	29,9	41,8	147,5
12		12-14		0,79	6,15	69,8	42,8	38,8	31,8	44,8	158,2
13		15-16	0,81	6,35	69,9	45,9	39,9	33,5	46,5	165,8	

Tajriba o‘tkazilgan 2020 va 2022 yillarda ham yuqoridagi qonuniyat kuzatilib, eng yuqori quruq modda Sulton navini 60x15-1 sxemada ekilib, 15-16 hosil shoxi bo‘lganda chilpish o‘tkazilgan 7-variantda kuzatildi. (1-javdval) Bundan shunday xulosa qilish mumkinki har bir nav birinchi navbatda biologiyasi va o‘tkazilgan agrotexnik tadbirlarga bog‘liq xolda quruq modda to‘plashi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyot va intrnet saytlar

1.<http://arizona>

2. Tillabekov B.X., Yakvolxo‘jaeva G.S. G‘o‘zani S-65-24 va Qirg‘iziston-3 navlari hosildorligiga tup qalinligi va o‘g‘itlar me‘yorini ta’siri. Toshkent, 1993, S. 21-22.

3. Мусаев Р. Оптимальные нормы минеральных удобрений при различной густоте стояния сортов хлопчатника в условиях лугово-сазовых почв Ферганской области. Автореферат кандидатской диссертации. Ташкент, 1997. 22 с.